

THE MECHANISM FOR ENSURING MEDIA FREEDOM OF INFORMATION AND ITS IMPORTANT FUNCTIONS

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich

Urgut branch of Samarkand State University

Department of humanities, teacher of philosophy

In philosophy, doctor of Philosophy (PhD)

jtaniqulov140@gmail.com

+99893-346-13-13

Urgut branch of Samarkand State University

Initial training route group 104

student Allayarova Sevinch Allayar daughter

+99890-477-35-76

Annotation: this article summarizes the positive aspects of ensuring media freedom of information in the current period and the reforms being carried out in our country on this issue. As well as "freedom of information", the concepts of "information security" were also covered.

Keywords: Freedom of information, constitutional order, national mass media, freedom of speech, basic principles, democratic principles, innovative information platform, web resource.

MEDIA AXBOROT ERKINLIGINI TAMINLASH MEXANIZMI VA UNING MUHIM FUNKSIYALARI

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Gumanitar fanlar kafedrası, falsafa fani o'qituvchisi

Falsafa fanlari bo'yicha, falsafa doktori (PhD)

jtaniqulov140@gmail.com

+99893-346-13-13

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Boshlang'ich talim yo'nalishi 104-guruh

talabasi Allayarova Sevinch Allayar Qizi

+99890-477-35-76

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi davrda media axborot erkinligini ta'minlashning ijobiy jihatlari va mazkur masala yuzasidan yurtimizda

qilinayotgan islohatlar haqida ma'lumotlar jamlangan. Shuningdek, "axborot erkinligi" bilan bir qatorda "axborot xavfsizligi" tushunchalari ham yoritib o'tildi.

Kalit so'zlar: *Axborot erkinligi, konstitutsiyaviy tuzum, Milliy mass-media, so'z erkinligi, asosiy prinsiplar, demokratik tamoyillar, innovatsion axborot platformasi, veb-resurs.*

Hozirgi shiddatli davr tezkor axborot va yangiliklar talqiniga katta ehtiyoj uyg'otdi. Zero har bir fuqaro matbuot orqali axborotga bo'lgan ehtiyojini qondiradiki, shu bilan birga fikr va tafakkur doirasidagi ma'lum bir o'zgarishlarni his etadi. Binobarin, demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining ravnaq topishida fikrlar ustuvorligining o'rni beqiyos. Jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa hususida holis axborot bera olish esa ommaviy axborot vositalarining birlamchi vazifasidir. Shu vazifani bajarar ekan, gazeta va jurnallar, radio va televideniya omma bilan hokimiyat o'rtasidagi o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi bo'lib xizmat qiladi.

Axborot erkinligi – insonning asosiy huquqi. U erkinlikning Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z himoyasiga olgan barcha turlari uchun mezon sanaladi. Ommaviy axborot vositalarining tinchlik va xalqaro hamjihatlikni mustahkamlash, inson huquqlarini rivojlantirish va irqchilik hamda aparteid va urushga gijgijlashga qarshi kurashdagi hissasiga oid asosiy prinsiplar to'g'risidagi deklaratsiyaning 2-moddasida qayd etilganidek, "inson huquqlari va asosiy erkinliklarining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladigan fikr, uni ifodalash va axborot erkinligini amalga oshirish tinchlik va xalqaro hamjihatlikni mustahkamlashning muhim omilidir". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasida shunday normalar mustahkamlangan: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin".

Ma'lumki, mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohot jarayonlari davom etmoqda. Konstitutsiyaviy komissiya ma'lumotlariga qaraganda, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi umumxalq muhokamasi davomida fuqarolar tomonidan Konstitutsiyaga ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar faoliyatiga aralashmaslik bilan bog'liq normani kiritish yuzasidan ham takliflar bildirilgan. Bu ham – axborot erkinligi taqozosidir. Binobarin, "Shohsen – ogohsen, ogohsen – shohsen," deydi donishlar. Ommaviy axborot vositalari butun dunyoda "To'rtinchi hokimiyat" deya ta'riflanishi bejiz emas.

Yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 15 ta eng muhim yo‘nalishdagi islohotlari samaradorligiga nisbatan ekspertlar tomonidan berilgan baholar e‘lon qilindi. Xususan, mamlakatimizda media muhitining kengaytirilishi, ommaviy axborot vositalari hukumatning jamiyat hayotiga taalluqli muhim qarorlarni qabul qilishidagi roli oshgani e‘tirof etilgan. Bu bejiz emas. Prezidentimiz qayerdagi ommaviy axborot vositalari ochiqligi haqida gap ketsa, soha vakillarini faol bo‘lishga da‘vat etadi, doim axborot erkinligini qo‘llab-quvvatlashini, jurnalistlar haq-huquqlari himoya qilinishini ta’kidlaydi. Davlatimiz rahbarining joriy yilda mamlakatimiz matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigida: “Biz barpo etayotgan huquqiy demokratik davlatda so‘z va matbuot erkinligi doimo Bosh qomusimiz va qonunlarimiz hamda Prezident himoyasida bo‘ladi” degan so‘zlari bu fikrning yaqqol tasdig‘idir.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligini ta‘minlashning yangi tizimi joriy etildi. Natijada keyingi davrda ko‘plab vazirlik va idoralarda axborot xizmatlari zamon talablari asosida qaytadan, barcha tuman va shahar hokimliklarida esa birinchi marta tashkil etildi. Aynan shu bugun mamlakatimizda YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, hukumat idoralari va mobil aloqa operatori bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan maxsus innovatsion axborot platformasi ishga tushirilgani ham o‘ziga xos ramziy ma’no ega. Ishonchimiz komilki, «Yaxshi narsalar interneti» deb nomlangan ushbu veb-resurs bolalar, o‘smirlar, ota-onalarning sifatli, xavfsiz, xolis va foydali axborotdan erkin foydalanishini ta‘minlash ishiga muhim hissa qo‘shadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Axborotdan erkin foydalanish xalqaro kuni 2016 yildan buyon ko‘plab mamlakatlar qatori O‘zbekistonda ham keng nishonlanadi. Shu munosabat har yili ayni shu sana arafasida dunyoning turli davlatlarida axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha erishilgan natijalar atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, joriy yilda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Milliy mass-mediani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi hamda YUNESKO hamkorligida gibrid shaklda o‘tkazilgan “Global miqyosda axborotdan erkin foydalanish va sohani raqamlashtirish imkoniyatlari tahlili: yutuqlar va muammolar” mavzusidagi xalqaro konferensiya ham ayni shu sanaga bag‘ishlandi.

Hozirgi kunda axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o‘z xohish-irodasini erkin bildirishi, davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi Yangi O‘zbekistonning sifat ko‘rsatkichlaridan biriga aylanib bormoqda. Bularning barchasi, bir tomondan, mamlakatimizda so‘z erkinligini to‘la ta‘minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ommaviy axborot vositalaridan ijtimoiy mas’uliyatni teran anglashni ham taqozo etadi. Bir so‘z bilan aytganda, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlar jadal taraqqiy etib hamda tobora globallashtirib borayotgan hozirgi davrda axborot erkinligi imkoniyatlaridan foydalanishning o‘ziga yarasha ijtimoiy yuki ham

borligini unutmashlik darkor. Zotan, har qanday erkinlik, agar uni suyiiste'mol qilinmasa, pirovardida tom ma'noda tinchlik va farovonlik, barqarorlik va taraqqiyot, hamkorlik va hamjihatlik omiliga aylanadi.

Axborot erkinligi haqida so'z borganda axborot xavfsizligi tushunchasi ham muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlashimiz lozim. Axborot xavfsizligi siyosati, birinchi navbatda, korxonada axborot xavfsizligini ta'minlashning maqsad va vazifalarini faoliyatga singdirish uchun zarurdir. Faoliyat yuritayotgan har bir xodim shuni tushunishi kerakki, xavfsizlik xodimi nafaqat ma'lumotlar chiqib ketishini tekshiruvchi, balki kompaniya xatarlarini minimallashtirish va shu sababli kompaniya rentabelligini oshirishda yordamlashuvchidir. Yurtimizda elektron hukumatni qurish, davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq harakatlar jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Hukumatning tegishli qarorlari va axborot xavfsizligi sohasidagi standartlarga (O'z DSt ISO/IEC 270XX) muvofiq har bir tashkilotda axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish va joriy qilinishi lozimligi yuzasidan talablar keltirilgan. Xususan, O'z DSt ISO/IEC 27002 standartining 5-bobida Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish bo'yicha talablar belgilab qo'yilgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni jamlagan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, axborot xavfsizligi bugungi kunda respublikamizning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirishning eng muhim elementi darajasiga ko'tarilmoqda. Axborot xavfsizligi madaniyatini mamlakatning tijorat tashkilotlari va davlat tuzilmalari faoliyatining barcha sohalariga chuqur singdirmasdan bozor ishtirokchilarining elektron hamkorligini kengaytirish va yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin emas. Tashkilotlarda axborot xavfsizligi madaniyatini oshirishning eng samarali vositasi bo'lgan axborot xavfsizligi siyosati zamonaviy sharoitda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, yurtimizda iqtisodiy faoliyat va davlat boshqaruvi jarayonlarining raqamlashtirilishi kuchayishi bilan axborot xavfsizligi siyosatining roli tobora oshib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamarasulov Baxriddin Shakasimovich. O'zbekistonda axborot erkinligi imkoniyatlarini optimallashtirishning ijtimoiy falsafiy muammolari. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23
2. G'ulom Mirzo, Oydin Ibrohimova, Axborot erkinligi – demokratiyaning muhim tayanchi. 2022